



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha va*
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
_____ *ning*

20__-20__-o'quv yili 4-sinf
o'qish savodxonligi fanidan
I chorak uchun

DARS
ISHLANMALARI

O‘IBDO‘ _____

20__-20__-o‘quv yili 4-sinf o‘qish savodxonligi fanidan I chorak uchun
taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	Yagonadir Vatanning sening!	1		
2.	Buyuk mehring	1		
3.	Sayroqi qushcha	1		
4.	Vatan mehri (Audio ertak)	1		
5.	Vatan yoshlari	1		
6.	Marvarid	1		
7.	Marvarid	1		
8.	STO‘	1		
9.	Nazorat ishi-1	1		
10.	Toshbag‘ir	1		
11.	Qarg‘a va paxta	1		
12.	Ona tilim	1		
13.	Kitoblar mazmuni (Audio rivoyat)	1		
14.	Tabiat darsi,Ona tili darsi	1		
15.	Baxtimizning timsoli	1		
16.	Qanot qoqqan orzular	1		
17.	Yetti xazinaning biri	1		
18.	Yetti xazinaning biri	1		
19.	STO‘	1		
20.	Nazorat ishi-2	1		
21.	Hunarli mingni yengar	1		
22.	Kitob va boylik	1		
23.	Fazoga sayr	1		
24.	Fazoga sayr	1		
25.	Bir kunda uch marta hosil bergan	1		
26.	Nazorat ishi-3	1		
27.	Nazorat ishi tahlili	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Yagonadir Vatanning sening

Maqsadlar:

- a) ta'limiy maqsad**-o'quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'zbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og'zaki nutqini o'stirish.
- b) tarbiyaviy maqsad**- Vatan va tabiat go'zalliklari madhi, ota-onaga, yor-birodarlarga mehr-muruvvat tuyg'ularini shakillantirish.
- d) rivojlantiruvchi maqsad**-o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish. Inson fe'lida uchrab turadigan ba'zi qusurlar va ularning oqibati tasvirlangan ibratga to'la lavhalar, ertaklar-u rivoyatlar, maqol, matal, topishmoqlar, tez aytishlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:

mavjud axborot manbalaridan (kitob, telefon, kompyuter) foydalana olish va ulardagi materiallarga ongli munosabat bildirish, xulosa chiqarish; kerakli axborotlarni kutubxonadagi adabiyotlardan qidirib topa olish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

bir kunlik xarajatlarni hisoblashni bilish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars usuli: suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.

III. Yangi mavzu bayoni:

Yagonadir Vatanning sening!

Xurshid Davron

Vatan o'zi nima?

Donishmandlardan biri: "Vatan - bu sening kindik qoning tomgan tuproq", - desa, ikkinchisi: "Vatan - bu sen suygan odamlar manzili!" - deydi. Boshqasi:


"Vatan - millat xotirasi", - deb zavqlanadi. Biz Vatan kalimasiga ne-ne so'zlarni qo'shib, aziz qadriyatlarga nom topamiz: Vatan tuprog'i, Vatan tuyg'usi, Vatan tarixi, Vatan kelajagi...

Inson uchun havo, quyosh, suv, non, ota-ona qanchalik aziz va muqaddas bo'lsa, Vatan ham shunchalik mo'tabardir. Vatan ona tuproqdan boshlanadi.

Vatanga muhabbat shu tuproqqa - ona qishloq dalalariga, ko'klam chog'ida lolazorga aylangan qir- adirlarga, olislarda yuksalgan moviy tog'larga, hatto yantog'-u saksovuldan boshqa giyoh unmagan dasht-u sahrolarga bo'lgan muhabbatdan boshlanadi.

Vatan muhabbati ota-onaga, aka-ukaga, opa-singilga, do'st-birodarga bo'lgan mehr bilan qo'shib ketadi. Nafaqat inson, hatto qushlar ham o'z yurtlarini sog'inadi. Dov-daraxtlar o'z yurtlarini qo'msaydi. Aytishlaricha, Amerikada ming yilcha umr ko'radigan daraxt bo'lar ekan. Fransuzlar uni havas bilan o'z yurtlariga olib kelib ekishibdi. Nihollar o'sib, ko'kka bo'y cho'zibdi...

Yillar o'tib, bog'l o'rmonga aylanibdi. Ammo oradan o'ttiz-qirq yil o'tgach, kutilmagan voqea yuz beribdi: suv ichib yashnab turgan daraxtlar o'z-o'zidan qurib qolibdi. Olimlar falokat sabablarini izlay boshlashibdi. Uni aniqlashgach, hayratdan yoqa ushlabdi. Bu daraxtlar qurigan pallada Amerika qit'asida qattiq qurg'oqchilik bo'lib, u yerdagi shu navli daraxtlar ham qurib qolgan ekan. Shunda olimlar bir-birlaridan ancha olisda bo'lgan daraxtlarni birlashtiruvchi qandaydir kuch, qandaydir sir bor ekan, degan xulosaga kelishibdi. Ko'rdingizmi, aqlimiz anglashga ojiz. Bu sirli aloqa Vatan tuyg'usi bilangina izohlanishi mumkin. Vatan - ona kabi yagona! Yagonaligi bilan muqaddas va mukarram. Mukarramligi bilan esa bebaho va beqiyosdir!



1. "Vatan" so'ziga ta'rif bering.
2. "Istiqlol" so'zida nimalar mujassam?
3. "Qadrlash" so'zining ma'nosini qanday tushunasiz?
4. Jahon davlatlari o'rtasidagi aloqa deganda nimani tushunasiz?

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi.

O'tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O'quvchilar topshiriqlarni bajarib, o'tilgan mavzuni qismlarga bo'lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Buyuk mehring

Maqsadlar:

a) ta'limiy maqsad-o'quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'zbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og'zaki nutqini o'stirish.

b) tarbiyaviy maqsad- Vatan va tabiat go'zalliklari madhi, ota-onaga, yor-birodarlarga mehr-muruvvat tuyg'ularini shakllantirish.

d) rivojlantiruvchi maqsad-o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish. Inson fe'lida uchrab turadigan ba'zi qusurlar va ularning oqibati tasvirlangan ibratga to'la lavhalar, ertaklar-u rivoyatlar, maqol, matal, topishmoqlar, tez aytishlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

turli yo'nalishdagi (ertak, sarguzasht, hikoya va san'atga doir) kitoblarni muntazam o'qish va o'rganish; yaxshilik va yomonlikni bir-biridan farqlay olish va yaxshi fazilatlarga rioya qilish; o'zining xato va kamchiliklarini to'g'ri tushunish, o'zini nazorat qilish va xatolarini tuzatishga harakat qilish;

o'qib-o'rganib borish orqali bilimini oshirib borish.

Milliy va umummadaniy kompetensiyasi:

badiiy adabiyotda aks etgan vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalarini, umuminsoniy va milliy qadriyatlar tasviridagi o'ziga xosliklarni anglash;

yovuzlik va xunuklikdan nafratlana bilish;

yaxshi va yomon odatlarni bir-biridan farqlay olish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars usuli: suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.

III. Yangi mavzu bayoni:

“Vatan” arab tilidan olingan so'z bo'lib, “tug'ilgan makon” degan ma'noni anglatadi. Bizning Vatanimiz mustaqil o'zbekistondir.

“Mustaqillik” so'zi ham arab tilidan olingan. U “erkin, ozod, qaram bo'lmagan” kabi ma'nolarni bildiradi. Inson yoki biror davlatning boshqalarga qaram emas, erkin bo'lishi, o'z yo'lini o'zi tanlashi mustaqillikdir.

Buyuk mehring

Nazarmat Egamnazarov

O'zbekim, o'zligim, hayotim, borim,
Munavvar olamda suyuk ko'rking bor,

Turkiy el soʻzligim, ona diyorim,
 Dillarda yangragan buyuk mehring bor.
 Temurbek qadami senda koʻrinur,
 Muazzam azmingni sezmay boʻlurmi?
 Navoiy gʻazali dilrabo erur,
 Onalik mehringni sevmay boʻlurmi?
 Osiyo bagʻrida tabarruk joying,
 Olisdir tarixing, kechgan yoʻling ham.
 Dunyoga havasli gulshan chiroying,
 Xotirda toʻsiqli kechmishlaring ham.
 oʻzbekim, oʻzligim, hayotim, borim,
 Munavvar olamda suyuk koʻrking bor,
 Turkiy el soʻzligim, ona diyorim,
 Dillarda yangragan buyuk mehring bor.
 Sen bizga istiqlol, joni jahonsan,
 Erking-chun qanchalar qon toʻkmaganmiz.
 Bagʻri keng, oʻz soʻzli oʻzbekistonsan,
 oʻzgaralar oldida bosh egmaganmiz.
 Sen dilda qoʻshiqsan, elga nur madhing,
 oʻzbekim, oʻzligim, hayotim, borim.
 Jahonga namoyon qudrat-u koʻrking,
 Turkiy el soʻzligim, ona diyorim,
 Yerlari muqaddas oʻzbekistonsan.



1. Sheʻrdagi misralar oxirida takrorlanib kelayotgan soʻzlarni belgilang.
2. Misralar oxiridagi ohangdosh soʻzlarni toping.
3. Sheʻrda qaysi tarixiy shaxslar ismlari keltirilgan?

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: oʻtilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob oʻtkaziladi.

Oʻtilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. Oʻquvchilar topshiriqlarni bajarib, oʻtilgan mavzuni qismlarga boʻlib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, oʻqituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

V. Oʻquvchilarni ragʻbatlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan oʻquvchilar ragʻbat kartochkalari bilan ragʻbatlantiriladi.

VI. Uyga vazifani eʻlon qilish: yangi mavzuni toʻliq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

OʻIBDOʻ: _____

(imzo)

(sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.

+99890-530-00-68 nomerga telegramdan yozishingiz yoki telegramdan nza4567 izlab telegramga murojaat qilishingiz so'raladi.
Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi.

Hujjat word variant doc formatda beriladi.

33 listdan iborat I chorak 4-sinf o'qish savodxonligi fanidan konspektini to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.




Narxi: 15 ming so'm

Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Veb sayitimiz: Zokirjon.com

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud

- 1. 1-11-Sinflar uchun sinf soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11. O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12. Psixolog hujjatlari**
- 13. Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14. Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15. Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**